

## O'ZBEK ADIBALARI HIKOYALARIDA AYOL OBRAZINING O'ZIGA XOSLIGI

**Kamola Egamberdiyeva,**

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Namangan davlat universiteti doktoranti, dotsent v.b.*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18409838>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek adibalari hikoyalarida ayol obrazining badiiy-estetik talqini, uning ma'naviy-ruhiy olami hamda ijtimoiy mavqei tahlil qilinadi. Tadqiqotda ayol obrazi orqali milliy qadriyatlar, an'anaviy va zamonaviy tafakkur uyg'unligi, shuningdek, adibalar ijodida ayolning ichki kechinmalari va psixologik holatlarini tasvirlash usullari ilmiy asosda yoritiladi. Natijada o'zbek adibalari hikoyalarida ayol obrazi individual xarakterga ega, ko'p qirrali va badiiy jihatdan mukammal obraz sifatida shakllangani xulosalanadi.

**Kalit so'zlar:** o'zbek adibalari, ayol obrazi, hikoya janri, badiiy talqin, psixologizm, milliy qadriyatlar, gender masalasi, obraz va xarakter.

**Abstract.** This article analyzes the artistic and aesthetic interpretation of the image of a woman in the stories of Uzbek writers, her spiritual and mental world, and her social status. The study sheds light on the scientific basis on the harmony of national values, traditional and modern thinking through the image of a woman, as well as the methods of depicting women's inner experiences and psychological states in the works of writers. As a result, it is concluded that the image of a woman in the stories of Uzbek writers is formed as an individual, multifaceted and artistically perfect image.

**Keywords:** Uzbek writers, image of a woman, story genre, artistic interpretation, psychologism, national values, gender issue, image and character.

**Аннотация.** В данной статье анализируется художественно-эстетическая интерпретация образа женщины в произведениях узбекских писателей, её духовного и ментального мира, а также её социального статуса. Исследование освещает научные основы гармонии национальных ценностей, традиционного и современного мышления через образ женщины, а также методы изображения внутреннего мира и психологического состояния женщин в произведениях писателей. В результате делается вывод, что образ женщины в произведениях узбекских писателей формируется как индивидуальный, многогранный и художественно совершенный образ.

**Ключевые слова:** узбекские писатели, образ женщины, жанр рассказа, художественная интерпретация, психологизм, национальные ценности, гендерная проблематика, образ и характер.

**Kirish.** Zamonaviy o'zbek adabiyotida ko'p yillar mobaynida davom etib kelayotgan bir qancha qahramonlar mavjud, adibalar o'z hikoyalarida onalar olamini inson hayoti bilan bog'lab, ular orqali chuqur falsafiy fikrlarini ifoda etganlar va ularni tasvirlashda nihoyatda nozik badiiy did va ramziylikka tayanib boradilar. Shuningdek, asosan, ular ona tabiatidan tashqari uning ruhiyati, ichki olami, ijtimoiy va falsafiy g'oyalarni hamda davr muammolarini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Hikoyanavislar odatda o'z hikoyasida ona obrazidagi o'ziga xosliklardan xususan, ona borlig'i, erkaklarda ucharamaydigan xarakteri, ruhiy olami va taqdir bitigidagi evrilishi tavrilaridan o'rinli foydalanadi. Bu tasvirlar orqali har bir davrlarda onalarning dardini

yoki holatlarini ifodalab berishi osonroq kechgan. Ayrim hikoyanavislar ona obrazidan ta'sirlanib, o'z hikoyalarida ona obrazini ochib beruvchi tasvirlardan foydalanishgan.

**Adabiyotlar tahlili.** Zamonaviy o'zbek hikoyachiligida onalar tasviri, xususan, ona obrazi qadimdan badiiy obraz yaratish, ruhiy holatni ifodalash va falsafiy mushohadalarni ifodalashda muhim vosita bo'lib kelgan. Zamonaviy adabiyotda ona ko'pincha hayotning muayyan bosqichi, insonning pirovard yo'li, vaqtning o'tkinchiligi ramzi sifatida talqin qilingan. Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi, Jamila Ergasheva, Lobar Rustamova, Ma'mura Zohidova, Tillaniso, Nodirabegim Ibroximova, Raxshona Axmedova singari ijodkorlarning hikoyalarida ona obrazlari ruhiy kechinmalar, qismatning bitigi va hayot falsafasi bilan uyg'un holda yoritiladi.

XXI asr o'zbek hikoyachiligida ona obraziga murojaat qilish an'anasi davom ettirildi. Ayol adibalar ijodida ona obrazi, kechinalari mavzusi muallifning o'z davridan kelib chiqqan ruhiy iztiroblari, tashvishlari va umidlarini ifodalashga xizmat qildi. Ayniqsa, Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ona obrazlari ruhiy tushkunlik, armon va ichki iztiroblar bilan bog'lanadi.

Mustaqillik davri hikoyalarida esa ona tasviri qahramonning falsafiy mushohadalari, ruhiy o'zgarishlari va shaxsiy kechinmalarini ifodalashda yangicha badiiy mazmun kasb etdi. Tillaniso, Nodirabegim Ibroximova, Raxshona Axmedova kabi hikoyanavislarning asarlarida ona obrazi qismati va ruhiyatining badiiy talqini insonning ichki dunyosi, ijtimoiy-milliy ruhiy kechinmalari bilan uyg'unlashadi. Adabiyotlarda ona tasvirining ko'p qirraligi, uni ruhiyati bilan bog'lash o'zbek hikoyachiligining asosiy estetik xususiyatlaridan biri sifatida tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan. Bunda ona obrazi orqali uning ruhiy olami, falsafiy qarashlari, hayotiy izlanishlari badiiy obraz darajasiga ko'tarilganini kuzatish mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda adabiyotshunoslikning qiyosiy-tipologik, struktur-semantik, poetik tahlil metodlari asosiy yondashuv sifatida qo'llanadi. Qiyosiy-tipologik tahlil orqali zamonaviy o'zbek hikoyachiligida ona obrazining talqini qiyoslanadi, turli ayol hikoyanavislar ijodida bu obrazning ruhiy-falsafiy mazmun kasb etishi ochib beriladi. Struktur-semantik metod yordamida ona tasvirining badiiy vositalar (epitet, metafora, ramz, peyzaj) orqali ifodalanishi, ularning mazmuniy qatlamlari hamda qahramon ruhiyati bilan bog'liqligi tadqiq qilinadi. Poetik tahlil metodologiyasi asosida esa ona obrazining badiiy-estetik vazifasi, uning qahramon kayfiyati va ruhiy kechinmalarini ifodalashdagi o'rni yoritiladi. Zaruratga ko'ra, intertekstual tahlil yondashuvi ham qo'llanib, ona tasvirining jahon hikoyachiligidagi o'xshash talqinlari bilan qiyosiy o'rganilishi mumkin.

Metodologik yondashuvlar uyg'unligi ona obrazining zamonaviy o'zbek hikoyachiligidagi o'rni, uning qahramon ruhiy olamidagi badiiy ifodasini yanada mukammal tahlil qilish imkonini beradi.

**Tahlillar va natijalar.** XX asr adabiyoti, ayniqsa, nasriy asarlar manzaralarida bo‘y ko‘rsatayotgan shaklan va mazmunan, uslubiy jihatdan qamrovning kengayishi, turfalanishi jahon va o‘zbek nasrining kengayganligini dalillaydi. Qariyb yuz yillik o‘zbek hikoyachiligi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, an‘ana va noan‘ana chegarasini aniqlab olish, norealistik hikoyachilik poetik qonuniyatlarini nazariy baholash muammoning dolzarbligini tayin etadi. Binobarin, hikoyachilik an‘anasi tadrijiy taraqqiyoti o‘tgan asrning 20-30- yillarida jadidlar harakati boshchiligida olib borilgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar, badiiy nasrdagi jiddiy takomillashuv negizida yanada barqarorlashdi. Insoniyat hayotida ba‘zi axloqiy kategoriyalar davrlar, zamonlar o‘tishi bilan eskirib, iste‘moldan chiqishi mumkin. Lekin shunday axloqiy asosiy kategoriyalar ham borki, ular na zamon o‘tishi, na davr, na yillar ta‘siriga uchramay, muqim qolaveradi, bashariyatning doimiy hamrohi bo‘lib yashayveradi. Shunday asosiy kategoriyalardan biri onalarga bo‘lgan munosabatdir.

Ma‘lumki, XX asr boshlarida o‘zbek adabiyoti yangilanish jarayonini boshidan kechirdi. Kuzatishlar shuni isbotlamoqdaki, onalar mavzusi jadid adabiyotining bosh mavzusi hisoblangan ma‘rifatparvarlik g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ijodkorlar davr, zamon, makon ruhida yaratilgan nasriy asarlarida ona qiyofasini yorqinroq ko‘rsatishga xizmat qildi. Adabiyotshunos T. Boboyev badiiy makon va zamon muammosini shunday ta‘riflaydi: “Realistik adabiy asar syujeti zanjiri xalqlarini tashkil etuvchi voqea-hodisalar muayyan bir makon va zamonda yuz berishi tabiiydir. Bu hayot va adabiyot qonunidir...” . Adabiyotda makon va zamon muammosi syujetning asosiy qismi yoki unsuri sifatida o‘rganilmaydi. Asar voqealarida muhrlangan makon va zamon ruhi syujet voqealarini rivojlantiradi, jonlantiradi, asarning pafosini yanada oshiradi.

60-yillarga kelib jamiyatda yangilanishga kuchli ehtiyoj sezildi. Bu yangilanish badiiy adabiyotda aks-sado bermay qolmadi, albatta. Yanada aniqroq aytganda, badiiy adabiyot ana shu ehtiyojning uyg‘onishiga turtki berdi, sababchi bo‘ldi. Xususan, she‘riyatda ham, nasrda ham qisqa fursat mobaynida ayol ruhiyati talqini birinchi o‘ringa ko‘tarila boshladi. Mazkur xususiyat voqelikni badiiy tadqiq etishning yangi tamoyillarini yuzaga chiqardi. Hayotga tanqidiy yondashuv o‘qtin-o‘qtin ijodiy an‘anaga aylandi. E‘tiborlisi shuki, bu xususiyat adabiyotga yangi kirib kelayotgan navqiron avlodning peshqadam vakillari ijodida, ayniqsa, bo‘rtib ko‘rinadi.

Said Ahmad, Odil Yoqubov, Shukur Xolmirzayev, O‘tkir Hoshimov, Tohir Malik ana shunday yozuvchilardan edi. O‘zbek xalqining dunyo tamaddunida o‘ziga xos o‘rin tutishida yozuvchilar asarlarida mahorat bilan aks ettirilgan onalarga o‘xshash siymolarning o‘rni benihoyadir. Ijodkorlar asarlarida ona obrazi shu qadar mustahkam va muhim o‘rin tutadiki, ularsiz hatto yozuvchining yaxlit ijodini tasavvur qilish qiyin. O‘tkir Hoshimovning “O‘zbeklar”, “Odam ovozi”, “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyalarida qator onalar obrazi va ularning milliy xarakterini yaratishdagi badiiy ifoda va epik ko‘lam uyg‘unligining yetakchiligini ko‘rishimiz mumkin. “Odam ovozi” hikoyasida ona qiyofasi

asosiy planga chiqadi. Mastura xolaning yolg'iz qolishi sababini adabiyotshunos olimi M.Sultonova shunday izohlaydi: "Yevropa adabiyotida yolg'izlik fojiasi katta sotsial fojea sifatida talqin qilinayotgan bir pallada bizda yolg'izlik tushunchasining nisbiy ekanligi, bunday fojealar chiqib kelishi mumkin emasligini qattiqroq ta'kidlash ham mumkin edi". Olima fikrlarida ijtimoiy davr ta'siridagi mafkuraviy talab yaqqol ko'zga tashlanib turibdi. Asar qahramoni Mastura xola oddiy o'zbek ayoli. U mustahkam iymon, barqaror e'tiqod egasi. Ona obrazi hikoyada o'ziga xos turmush tarzini, sadoqat, vafo hamda sabr-toqat singari sodda, biroq ulug'vor tushunchalarni tarannum etishga xizmat qiladi. Ona obrazining yaratilishidagi navbatdagi bosqich "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasidir. Aslida bu hikoyani inson ruhiyatining lirik inkishofi sifatida baholash mumkin. Ona timsoli har bir adib izlanishlariga alohida bir mehr, chinakam ehtirom orqali kirib keladi. Bu ehtirom muallifning o'zidagi fazilatlar bilan tutashadi. O'.Hoshimov ijodidagi ona obrazi bevosita muallif avtobiografiyasi bilan uyg'unlashib ketadi. Shu o'rinda fransuz mutafakkiri D.Didroning xarakterning tipik sharoit bilan belgilanishi haqidagi fikrini naqadar haq ekanligi oydinlashadi. Darvoqe, tipik manzara jamiyat ma'naviy mezonlariga ziddlik kasb etsa ulkan fojialar keltirib chiqaradi.

"O'zbeklar" [5:89] hikoyasi o'lim va uning badiiy talqini uch obraz mohiyatini ochib beradi. Binobarin, milliy odat – Iskandar Vahobovichning "Otinoyini so'nggi manzilga kuzatish jarayoni"da ona-farzand-kelin munosabatlarining ma'naviy tahlili tadqiq markaziga ko'tariladi. Hikoyada epizodik holatlar ona qiyofasini muayyan darajada tavsiflaydi. Muallif qahramon vafoti bilan bog'liq hayotiy an'anaga bir necha badiiy vazifani yuklaydi. Yozuvchining yuksak mahorati tufayli hikoyada bu qahramonlar o'ziga xos xarakter darajasiga ko'tarilgan. Bu esa yozuvchining g'oyaviy niyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qilgan. "O'zbeklar" hikoyasida o'zbek onasining haqiqiy siymosini yaratila olingan desak mubolag'a bo'lmas.

O'zbek adabiyotshunosligida ona obrazini yaratish muammolari o'tgan asrning 40-50-yillarida boshlab o'rganila boshlagan bo'lsa-da, u davrdagi tadqiqotlarda bu qahramonlarga ko'proq umumobrazlar tizimining bir qismi sifatida qaralganini kuzatishimiz mumkin. Zamonaviy o'zbek nasrida bugungi kunda ona obrazi tasviriga alohida e'tibor qaratilib, hikoyaning bosh qahramoni darajasida yoritilgan asarlar soni o'tgan davr bilan qiyoslanganda salmog'i bisyor ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu borada o'z hikoyalariida ona obrazi orqali uning ruhiy kechinmalari, his-tuyg'ulari, orzu-umidlari bir so'z bilan aytganda ayol olamini bizga yanada yaqindan tanishtirish imkonini yaratgan adibalar Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Haydarova, Jamila Ergasheva, Lobar Rustamova hikoyalari orqali kashf eta olamiz. Shuningdek, zamonaviy o'zbek hikoyachiligida adiblar ijodida ham ona obrazi yetakchi o'rinlarda e'tirof etilmoqda.

Zulfiya Qurolboy qizining "Yovuzlik farishtasi", "Hilola", "Ayol qiyofasidagi ajal", "Ayol", "Momo Havo" hikoyalari bugungi jamiyatning asosiy muammosini ochib bera olgan [4:197].

Oilaviy munosabatlar, farzand tarbiyasi, oila boshlig'ining yuki, eng muhimi sadoqat masalasi ushbu hikoyada o'z tahlillariga ega. Kamola obrazi orqali adiba ayol jozibasi, muhabbati qirralarini ochib bersa, Shoira timsoli orqali esa oila sadoqati, farzandiga mehribon ona, o'z yoriga vafodor ayol timsolini yarata oldi. Realizm metodiga asoslangan ushbu hikoyada adabiyotda hayot haqiqatini tasvirlash tamoyili ustuvor ahamiyatga ega. Sababi, hikoyadagi muammo bugungi jamiyatning asosiy muammosini ochib beradi. Hikoyada to'rt qahramon: G'ulom Said, Kamola, Shoira obrazlari biz ko'rgan, bilgan insonlar. Qahramonlarning ruhiy dunyosi, orzu-maqsadi, hayoliy dunyosi adiba tomonidan mahorat bilan tahlilga tortilgan. Uch qahramon, uch xil qarash, uch muhabbat, uch obrazning dunyoqarashi hikoyada qahramon xarakterining voqealar rivojiga ma'lum yo'nalish beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dўstмухаммад Х. Ҳикояларда ҳаёт ва ҳаёл ҳақиқати. “Шарқ юлдузи” ж., № 4, 2011. 142-бет.
2. Умиров Х. Адабий ижод асослари. –Самарқанд: СамДУ нашри, 2019. – Б. 83.
3. Мухаммедова Н. Маргарет Дреббл асарларида Аёл образи ва унинг ижтимоий-эстетик талқини: Филол. фан. б-ча ф-фа д-ри. дисс автореф. – Тошкент: 2019. – Б. 50.
4. Куролбой қизи З. Ўлим ҳеч нарса эмас. Ҳикоялар. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – 297-305-бетлар.
5. Hoshimov O'.O'zbeklar. – Toshkent: 2019. – 231-bet.

Ajlnivaz atindagi  
NOKIS MAMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
NMPPI  
1934